

## **Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat hamda vazirlik tomonidan qabul qilingan dasturlar to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumot**

Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida barqaror mineral xomashyo bazasini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarda bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Xususan,

– “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida erishish maqsadida joriy yilda “2026–2030-yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish kompleks dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori;

– qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishishda loyihalarni o‘z muddatlarida amalga oshirish maqsadida “2030-yilgacha respublikada qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori;

– “Kon-geologiya sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda ta‘lim va tadqiqotni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, tarmoq korxonalarining rivojlanishiga oid quyidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilingan bo‘lib, aniq chora-tadbirlar tasdiqlangan. Jumladan:

– 2024–2028-yillarda “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir;

– 2030-yilgacha “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJni barqaror rivojlantirish;

– 2025–2026-yillarda sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini kengaytirish va ishlab chiqarishni jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoniga muvofiq “Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori loyihasi ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilmoqda.